Özbekiston va Turkiya: kimyo sanoatida yangi hamkorlik yönalişlari muhokama qilindi

// 19.11.2026
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/oezbekiston-va-turkiya-kimyo-sanoatida-yangi-hamkorlik-yoena



Bugun poytaxtimizda Özbekiston–Turkiya biznes-forumi hamda Biznesni qöllab-quvvatlaş böyiça yuqori darajadagi Özbekiston–Turkiya kengaşining birinçi yiğilişi bölib ötdi.

Tadbirlar doirasida ikki mamlakat örtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yanada kengaytiriş, istiqbolli qöşma loyihalarni amalga oşiriş masalalari muhokama qilindi. Şuningdek, biznes vakillari örtasida B2B va G2B formatlarida muzokaralar taşkil etildi.



Forum doirasida “Özkimyosanoat” AJ boşqaruvi raisi Nakkaş Holding, Evyap, Gentaş Kimya, Akdeniz Çemson Kimya va Hektaş kabi kimyo sanoati, energetika hamda iste’mol tovarlari işlab çiqariş sohalarida faoliyat yurituvçi yirik Turkiya kompaniyalari vakillari bilan uçraşuvlar ötkazdi.

Muloqotlar davomida quriliş, mebel va avtomobilsozlik sanoati uçun kimyoviy xomaşyo işlab çiqariş, şaxsiy gigiyena va kosmetika vositalari tayyorlaş hamda organik kimyoviy birikmalar işlab çiqariş böyiça hamkorlik imkoniyatlari körib çiqildi.

Uçraşuvlar yakunida mazkur yönalişlarda özaro manfaatli hamkorlikni yölga qöyiş, investitsiyaviy taşabbuslarni işlab çiqiş va qöşma loyihalarni amalga oşiriş istiqbollari yuzasidan fikr almaşildi.

Bunday uçraşuvlar kimyo sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etiş, yangi işlab çiqariş quvvatlarini yaratiş va mahalliy korxonalarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoşligini oşirişga xizmat qiladi.